



MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Bahromova Shohista Mamatqulovna

*Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani MMTBga qarashli 37-umumiy o'rta ta'lim
maktabning amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: mazkur maqolada kasblarni tuzilishi va kasb tanlashdagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kasb tanlash, kasbni sevish, kasbga jalb etish, kasb tanlash muammolari, ijobiy yechim, ota-ona ko‘magi, pedagogik-psixologik tavsiyalar, maktab bitiruvchisi.

Kasb tanlash bu - inson hayotida muhim qarorni qabul qilishda ilk qadam hisoblanadi. Inson umri davomida o‘zi tanlagan kasbdan mamnun bo‘lib yashashi, anashu muhim qarorni qabul qilishiga bog‘liqdir. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi buyrug‘i bilan o‘quvchilarga o‘rgatiladigan bitta kasb-hunar turi va ular amaliyoti yo‘lga qo‘yiladigan 208 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasasi ro‘yxati shakllantirildi. Tanlab olingan maktablarda o‘quvchilar qiziqishidan kelib chiqib, quyidagi 3 yo‘nalishdan biri bo‘yicha kasb-hunar o‘rgatiladi: - ishchi kasblar (hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatidan kelib chiqib, tadbirkor va hunarmandlar jalb qilingan holda 64 turda); - tadbirkorlik (21 turdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha); - zamonaviy kasblar (10 dan ortiq axborot texnologiyalari va kreativ industriya yo‘nalishi bo‘yicha). 2024-2025 o‘quv yilida 17 ming nafardan ortiq o‘quvchiga kasb-hunar o‘rgatish rejalashtirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda bitiruvchilarni kasbhunarga yo‘naltirish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Biroq, hali maktablarda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan masalalar ko‘pdir.



Bitiruvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda kasb tanlashda muammolarga duch kelinishi asosiy masalalardan biridir. Bu muammolarni ijobiy yechimini topish uchun ta’lim muassasalarida maktab bitiruvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, kasblar olami bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bitiruvchilar kasblar haqida qancha ko‘p ma’lumotga ega bo‘lishsa o‘quvchilarni kasb tanlash uchun imkoniyatlari shuncha katta hisoblanadi. Yuqori sinf o‘quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, iste’dodlari asosida tanlagan kasblariga to‘g‘ri yo‘naltirish o‘spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. Bitiruvchirlarga o‘qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o‘z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e’tibor berishlari kerak. Maktabni bitirgunicha hamma o‘quvchilar kasbini qat’iy tanlaydi deya olmaymiz. Sababi maktab bitiruvchilarida kasblarga har xil munosbatlar hosil bo‘lishi va maktabda o‘qish davrida kasb tanlash bo‘yicha turli xil niyatlar paydo bo‘lishidir.



V. A. Krutetskiy o‘spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi:

- biror o‘quv faniga qiziqish;
- vatanga foyda keltirish istagi (o‘ziga xos psixologik xususiyatini hisobga olmagan holda);



- shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish;
- oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik);
- do'stlari va o'rtoqlariga ergashish;
- ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi;
- moddiy ta'minlanishining yaxshi ekani;
- o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi.

Bundan tashqari boshqa motivlar ham masalan, o'quvchining biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to'g'risidagi ma'lumoti ham sabab bo'lishi mumkin. Maktab bitiruvchilarida kasblar haqida yaqol tasavvur bo'lmasligi sababli ular kasb tanlashda ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Bunga asosiy omil qilib o'z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasligi va u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmasligidir. Anashunday muammolarni oldini olish va bartaraf etish uchun imkoniyatlar mavjud.



Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ertangi yosh avlodni har tomonlama tarbiyalab, kelajakda komil insonlar bo'lib yetishishlarini



ko'zda tutadi. Mustaqilligimizga erishgan yillarimizdanoq yurtimiz ertasi bo'lgan yoshlarga katta e'tibor qaratila boshlandi va ularga birqator keng imkoniyatlar yaratildi. Mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyevning yoshlarning kasb hunar egallashi borasida bildirgan quyidagi fikrlari ayniqsa etiborga molikdir:

- Mahallalarda 1000 dan ziyod kasb-hunarga o'qitish markazlari tashkil etiladi;

- Kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlarida 1 million so'mgacha subsidiya beriladi. Buning uchun budjetdan 100 milliard so'm ajratiladi;

- O'quv kurslarini tamomlab, o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga uskunalar xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar beriladi;

Shuningdek umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari ta'lim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o'rgatish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta'limini davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga sharoitlar yaratish bo'yicha chora tadbirlar tashkil qilindi. Ushbu chora tadbirlarga muvofiq umumiy o'rta maktab, akademik litsey bitiruvchilarida aniq bir maqsadli kasbiy motivlarni shakllantirish, kasbga yo'naltirish bo'yicha aniq metodikalar o'tkazish va qaysi kasbga qobiliyatlari borligini aniqlash zarur. Chunki hozirgi kunda ko'plab holatlarda farzandlar ota-ona majburiyatlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashga majbur bo'lib kelmoqda. Bilamizki, ota-onalar o'zlari erisha olmagan kasbini farzandlarida ko'rishni hohlaydi. Bu esa, ertangi kunda farzandlarining majburan tanlagan sohalarida na yutuqqa erisha olishlarini bildiradi na kelajagiga foyda berishiga ishonish mumkin. Bunda, albatta, jamiyatimizda psixologik bilimlarning yetishmasligini takror va takror ko'ramiz. Shuning uchun ham har biro ota-ona farzandlarini qiziqish va qobiliyatlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Farzandlarining kelajagiga e'tibor bolmasliklari zarur va shart deb hisoblayman. Qiziqish-insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, idealari, ya'ni uning oliy maqsadlari, orzu niyatlari, orzu umidlari bilan bevosita muhim rol o'ynaydi hamda



ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq manfaatlari nuqtai nazardan mehnat reurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va me'yoring belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkonoyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan xabrdor bo'lishi zarur. Kasbga yonaltirishda har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlarini, shuningdek, jamiyatning qaysidir kasbga nisbatan ehtiyojini ta'minlash zarurligini inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to'g'ri yonaltirish shaxsning hayotida to'g'ri yo'lni topishiga imkon beradi. O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o'zlarining qobiliyatlariga yarasha to'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perseptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatlari yuqori bo'lishi, kasblar bilan bog'liq fan to'garaklarining faoliyatini rivojlantirish, maktablarda kasb - hunar to'risidagi ma'ruzalarni tashkillash o'z natijasini beradi, shuningdek, maktablarda " Kasbim faxrim", "Kasbim kelajagim dasturi" kabi mavzularda seminar - trening mashg'ulotlari, suhbatlar va munozaralar o'tkazilishi, uchrashuvlar, kasb - hunarga oid ko'rgazmalar tashkil etilishi, o'quvchilarda kasb tanlashga qiziqish hamda ishtiyoqini



uyg'otadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishlari maktab rahbariyati bilan birgalikda maktabning amaliy psixologi, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar va o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.



Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, respublikamizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining zahirida davlatimizni yetakchi demokratik davlatlar ko'rsatkichiga chiqarish bosh maqsadi yotibdi. O'quvchilarda o'zlarining qiziqishlari asosida kasb tanlashga yo'llash bugunning dolzarb masalalaridir. Mehnat ta'limi darslari va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni kasbga yo'llash imkoniyatlari chegaralanganligi sababli ularni to'garak faoliyatida amalga oshirish mumkin. To'garaklarda o'quvchilarni bajaradigan faoliyatidan kelib chiqib kasblarga yo'naltirish imkoniyatlari kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г. Н. Эшчанова (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 2 (NUU Conference 1), 82-85.



2. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O ‘RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O ‘QISH VA ONA TILI O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA”. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.

3. INNOVATIVE MODEL OF SHAPING STUDENTS' CREATIVE THINKING SKILLS IN PRIMARY EDUCATION IN THE PROCESS OF CREATING PROBLEM SITUATIONS AND ITS CONTENT. Innovativ achievements in science 2022. Kalendarova Zarafshon Kalbaevna Senior Lecturer, Department of Education, Kokand University, Kokand, Fergana region.

4. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(1), 17–20.